

## **KAPITAL QURILISH – MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA**

**Abdunazarov Saidaxmat Abdumalikovich**

JizPI, Iqtisodiyot va menejment kafedrası dotsenti

**Normurodov Samandar Olim o'g'li**

Jizzax politexnika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15898425>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Innovatsion rivojlanishning asosiy yo'nalishlari, mamlakat iqtisodiyoti ijtimoiy iqtisodiy jihatdan rivojlanishni yangi bosqichi va milliy rivojlanishdagi ro'li haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya dasturi, milliy iqtisodiyot, shaharsozlik, jamoatchilik, kommunikatsiya, kapital qurilish.

**Annotation:** This article talks about the main directions of innovative development, the new stage of social and economic development of the country's economy and its role in national development.

**Keywords:** Investment program, national economy, urban planning, public, communication, capital construction.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishning yangi bosqichiga chiqib bormoqda, chunki olib borilayotgan islohatlarning bosh maqsadi, O'zbekiston Respublikasini har tomonlama, yani ham iqtisodiy ham ijtimoiy jihatdan barqaror rivojlanishini ta'minlash, jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan joy olish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda iqtisodiy islohatlar bilan bir qatorda qurilishning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyati muhim rol o'ynaydi.

Bunda qurilish tarmog'ini yanada takomillashtirish, arxitektura hamda qurilish organlari va muassasalarini izchil rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirish, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ta'minlash, sohaga raqamli texnologiyalarni ilg'or joriy etish maqsadida quyidagilar O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

- hududlarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirish va ushbu jarayonda jamoatchilikning samarali ishtirokini ta'minlash;
- shaharsozlik faoliyatining sifati va xavfsizligini oshirish;
- shaharsozlik faoliyati sohasidagi ma'muriy tartib-taomillarning samaradorligi, ratsionalligi va shaffofligini ta'minlash, shuningdek, qurilish tarmog'i tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish;
- shaharsozlik faoliyatini raqamlashtirish, tarmoqqa zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- shaharsozlik faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish.

Qurilish milliy iqtisodiyotning mustaqil alohida tarmog'i bo'lib, yangi asosiy fondlarni yaratish hamda faoliyat yurgizayotgan ishlab chiqarish va noishlab

chiqarish ob'yektlarini qayta qurish, kengaytirish, ta'mirlash va texnik qayta jihozlash uchun mo'ljallangan. Qurilish tarmog'ining ahamiyati shundaki, mamlakat milliy iqtisodiyoti rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratib beradi. Qurilishning iqtisodiy jihatlarini o'rganishning murakkabligi qurilish ishlab chiqarish jarayonining tashkiliy-iqtisodiy shakllarining xilma-xilligi, turli funksional maqsad va vazifalarga ega bo'lgan ishtirokchilarning ko'pligi va qurilish ishlab chiqarish jarayonining tabiiy sharoitlarga sezilarli darajada bog'liqligidadir.

2023 yil 1-fevral holatiga qurilish tarmog'ida 45541 ta qurilish korxonasi va tashkilotlari faoliyat yuritmoqda, bu oldingi yilga nisbatan 1552 taga oshgan. 2023- yilning yanvar oyida, O'zbekiston Respublikasida jami 5 011,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 65,7 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar oyida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha: - binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 67,1 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 66,5 % ni tashkil etdi; - fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,9 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 70,9 % ni tashkil etdi; - ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 13,0 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 56,1 % ni tashkil etdi. Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 65,8 % i yoki 3 296,7 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 302,7 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,2 % ni tashkil etdi. Kichik korxonasi va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 1 988,6 mlrd. so'm yoki jami kichik korxonasi va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 60,3 % ni tashkil etdi. Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1 005,4 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 30,5 % ni tashkil etdi. Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,2 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi. Ushbu faoliyat turida kichik korxonasi va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022-yilning mos davriga nisbatan 8,0 % punktga kamayib, 59,0 % ni tashkil etdi. Norasmiy sektorning ulushi esa 2022-yilning mos davriga nisbatan 7,9 % punktga ko'payib, 33,8 % ni tashkil etdi. 240,9 mlrd. so'm 1984,6 mlrd. so'm 1138,0 mlrd. so'm Jami bino va inshootlarni qurish – 3363,5 mlrd. so'm Yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonasi va mikrofirmalar, norasmiy sektorning ulushi esa 2022-yilning mos davriga nisbatan 7,9 % punktga ko'payib, 33,8 % ni tashkil etdi

Qurilish ishlab chiqarish jarayonida investor, buyurtmachi, loyihachi, pudratchi, ixtisoslashtirilgan qurilish tashkilotlari ishtirok etadilar. Qurilish jarayonining bevosita ishtirokchilaridan tashqari, qurilish mahsulotlarini

yaratishda texnologik asbob-uskunalar, qurilish mashinalari va materiallari ishlab chiqaruvchi o'nlab zavodlar ham ishtirok etmoqda. Ishtirokchilarning bunday ko'pligi tufayli qurilish ishlab chiqarish jarayoni juda ko'p miqdordagi tashkiliy omillar ta'sirida shakllanadi, deb ta'kidlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, boshqaruv tizimini o'zgartirish, uni takomillashtirish, eng avvalo, tashkiliy munosabatlarni va shunga mos ravishda boshqaruvning tashkiliy shakllarini o'zgartirishni anglatadi. Shu sababli, kapital qurilishni to'g'ri boshqarish – uning samaradorligini oshirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish va tarmoqda mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va shu bilan qurilish tarmog'ining dinamik, rejali va mutanosib rivojlanishi davlat tomonidan uni ongli ravishda tartibga solish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. Qurilish tashkilotlari tomonidan yaratilayotgan mahsulotlar hajmining milliy iqtisodiyot yalpi daromadidagi ulushi doimiy ravishda ortib bormoqda, bu tarmoqda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar hamda mamlakat iqtisodiyotining jadal taraqqiyoti natijasidir. Shuni qayd etish kerakki, qurilish tarmog'i barcha tadbirkorlik tuzilmasining ko'pchilik qismiga to'g'ri keladigan xususiy korxonalar sonining o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gaybullayevna, R. S., & Musurmangulov. (2024). THE IMPORTANCE OF TIME MANAGEMENT IN ENSURING EFFICIENCY IN CONSTRUCTION. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 3(1), 28–31.
2. Gaybullayevna, R. S. (2023). THE STATE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY: PROBLEMS AND SOLUTIONS. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 2(12), 38-42.
3. Sharifa, R. (2023). DIRECTIONS FOR INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN REGIONS. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(16), 1088-1092.